

## INFORMATIKA DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

*Choriyeva Nargiza Abriy qizi*

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 24-maktab*

*Informatika va AT fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Informatika va Axborot texnologiyalari faniga o'z hissasini qo'shgan Pedagogika fanlari doktori, prof. F.M.Zokirovaning axborot va uning turlari (ko'rinishlari) haqidagi oltinga teng fikrlari, darslarda multimedia vositalaridan foydalanishga turtki bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** Axborot, multimedia, kommunikatsiya, elektron darsliklar, pedagogik usul va uslublar, texnologiyalar.

Respublikamizda axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayoniga foydalanish bo'yicha ko'plab me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida "Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar maktablarida, litsey va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash" ko'zda tutilgan.

Yuqorida ta'kidlangan vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik usul va uslublar ishlab chiqish, hamda amaliyotga tatbiq etish davr talabi hisoblanadi. Bunday usullardan biri maktab va litseylarning axborot texnologiyalari darslarida multimedia vositalaridan foydalanib dars samaradorligini oshiriladi. Multimedia vositalari - o'qitishning didaktik vositalari turiga kiradi.

Quyida axborot turlarini o'rganish darsiga doir multimedia vositalaridan foydalanish jarayoni bayon etiladi. Multimedia – matn, audio, video, tasvir, grafika, jadvallar, animatsiya va boshqalarning yig'indisidan iborat. Multimediali axborot shakllantirilishi uchun uning kamida uchta elementi qatnashishi shart.

Axborotning o'zi shartli belgilar yordamida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqida, ularni tasvirlash shaklidan qat'iy nazar uzatiladigan va saqlanadigan ma'lumotlardir. Pedagogika fanlari doktori, prof. F.M.Zokirovaning ta'kidlashicha, axborot quyidagi turlarda (ko'rinishlarda) namoyon bo'ladi:

grafikli axborot – grafik, chizma va hokozolar;

matnli axborot– matn, turli xil simvollarning to'plami va hokozolar;

ovoqli (tovushli) axborot– tovush va signallar bilan amalga oshiriladi;

yorug'likli axborot – yorug'lik signallari orqali amalga oshiriladi.

Darsda ushbu mavzuni o'rganishda quyidagi uslubdan foydalanish mumkin. Birinchi navbatda axborotning yuqorida sanab o'tilgan turlari (ko'rinishlari) bo'yicha multimediali slayd tayyorlanadi, so'ngra dars jarayonida taqdimot materiali ketma-ket namoyish etiladi. 1-rasmda axborotni qabul qilish bo'yicha multimediali slayd keltirilgan.



**1-rasm: Axborotni qabul qilish**

Multimediali taqdimotni namoyish etish quyidagicha kechadi: Taqdimotning birinchi slaydi namoyishga qo'yilganda kompyuterning monitori ekranida grafik ko'rinishidagi (1-rasm) axborot harakatlanib (animatsiya) ko'rinish beradi, ayni bir vaqtda slayddagi matnli ma'lumotlarni suxandon bayon etib boradi va grafikni tushuntirib beradi. Ushbu jarayon ohista ovozda musiqa bilan birga olib boriladi (multimediali effekt). O'qituvchi esa kadrlarni to'xtatib turib, talabalarga axborotning ushbu turi (ko'rinishi) ning mazmunini tushuntirib beradi. O'qituvchi shu tariqa multimediali slaydlardan foydalanib axborotning navbatdagi turlarini (ko'rinishlarini) namoyishga qo'yib talabalarga axborot turlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Shunday qilib, multimediali didaktik vositalarning multimediyaviy effekti natijasida talabalar tomonidan o'rganiladigan materialni qabul qilish va o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi hamda dars samaradorligi oshadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. "Barkamol avlod yili" Davlat Dasturi. – T.: O'zbekiston, 2010. -38 b.
2. Boqiev R.R., Qayumova N. Axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma.- Toshkent, TDPU, 2006. -80 b.
3. Sattorov A. Darsning sifat va samaradorligini oshirishda taqdimot dasturlaridan foydalanish // Xalq ta'limi. – T., -№ 3.- 2005. – B. 81-83.